



## ABDULLAXON II NING MAMLAKAT OBODONCHILI YO'LIDA OLIB BORGAN ISHLARI

Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li,

*Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Umumiy tarix kafedrasи o'qituvchisi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shayboniyalar sulolasidan bo'lган Abdullaxon II davrida mamlakat obodonchiligi yo'lida amalga oshirgan islohotlar, jumladan, sug'orish tizimidagi islohotlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Oqchobsoy, Sangzor, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh, Murg'ob, Karmana ko'prigi, Kamal (Kamar) qishlog'i,

Shayboniyalar davlatida qo'riq yerkarni o'zlashtirish davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. Shayboniyalar davlatida siyosiy barqarorlik, urush, nizolar bo'lismiga qaramay, sun'iy sug'orish ishlarini taraqqiy ettirish davlat e'tiboridan chetda qolmagan. Sun'iy sug'orish ishlarining taraqqiy etgan davri XVI asrda Shayboniyalar sulolasidan bo'lган Abdullaxon II davriga to'g'ri keladi. Abdullaxon II Oqchobsoy, Sangzor, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh va Murg'ob daryolari imkoniyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'rgan.

Jumladan, fikrimiz isboti sifatida 1582-yili Zarafshon daryosida qurilgan Karmana ko'prigi (Puli Karmana) – suv ayirgichi, 1583-yili Nurota tog'larida qurilgan Oqjob suv ombori, Zarafshon daryosi suvini tegishli hududlarga taqsimlashda katta ahamiyatga ega bo'lган Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor ko'pri suv ayirgichlari, Zarafshon daryosidan Jizzax vohasiga tortilgan va Sangzor daryosi bilan tutashuvchi Tuyatortar kanali (1575-1585), Murg'ob vohasidagi Hovuzixon suv ombori, 1556-1557-yillari qurilgan va Samanjuq dashtini obodonlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lган Xoja Kaab kanali, 1559-1560-yillari qurilgan Afshona kanali, 1568-1569-yillari Amudaryodan Chorjo'ygacha tortilgan, Murg'ob daryosidan Marv atrofiga chiqazilgan kanallar, 1577-1579-yillari qurilgan Xisor va Roshiton, 1579-1585-yillari Vaxsh daryosidan qazilgan sun'iy sug'orish inshootlarini keltirish mumkin. Chunonchi, "hujjatlarga ko'ra, ana shunday tabirlarda o'n minglab mardikorlar qatnashgan"<sup>18</sup>. Yirik suv inshootlaridan tashqari, mahalliy ahamiyatga ega anhorlar, ariqlar qazish, ularni tozalash, sardobalar qurish kabi tadbirlar ham doimo amalga oshirib borilgan. Chunonchi, Toshkent viloyatidagi Zax ariq bunga misol.

Shunday qilib, Shayboniyalar davlatida dehqonchilik asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etadi va bu sohani rivojlantirish uchun davlat tomonidan ko'plab suv ayirgichlar, to'g'onlar, kanallar, bandlar qurilgan.

Yuqoridagi tadbirlar ana shunday tadbirlardan biri edi. Bu tadbirlar esa o'z navbatida g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, ipakchilik sohalarining rivojlanib borishiga yo'l ochib bergan.

Shayboniyalar sulolasi vakili Abdullaxon II davrida suv omborlarining ko'lami, hajmi qay darajada taraqqiy etganligini bilish uchun Abdullaxon bandi (Oqchobsoy) suv omborini yoritib o'taman.

Shayboniyalar davrida sug'orish tizimini yo'lga qo'yish, ekin maydonini kengaytirish, qo'riq yerkarni o'zlashtirish uchun bir qator davlat ahamiyatidagi tadbirlar amalga oshirilgan. Suv inshootlarini barpo etish davlat e'tiborida turgan.

Eski Nurota (hozirgi Samarqand viloyati Qo'shrobot tumani)dagi Abdullaxon bandi (Oqchobsoy suv ombori)ning qurilish tarixini shunday e'tibor ko'rinishi deyish mumkin. Ushbu inshoot 1583-yilda Buxoro hukmdori Abdullaxon II buyrug'i bilan eski Nurota tumanidagi 65 km sharqda hozirgi Qo'shrobot tumanidagi eski Oqchob qishlog'i yaqinida qurila boshlangan. Bu haqda "Abdullanoma"da quyidagilar keltiriladi: "On hazrat (Abdullaxon II) u joydan (Ishtixon tavobi'dan bo'lган Temir qobuq) Hazoraga tobe bo'lган Oqjob dasasiga qarab yurdi. Har ko'klamda o'sha darada ko'p sel to'planib, lekin uning suvi ekinga yetishmas edi. Shuning uchun buyurdi: "Ahmadali otaliq nayman o'sha daraga

<sup>18</sup> A.Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T, Sharq, 2000, 248 bet.



Somon yo'li shaklida bir to'g'on qursin, toki dehqonlar o'sha joyda to'plangan suvni bo'lishib, ekinlarni sug'orsinlar".<sup>19</sup>  
Demak, Oqchob va uning atrofidagi vohalarmi obod qilish maqsadida qurilgan.

Olim A.R.Muxammadjonovning "Abdullaxon bandini tekshirganda" ("Fan va turmush" jurnalida 1963-yil, 3-son, 23-bet) maqolasida professor Y.G'.G'ulomov boshchiligidagi 1957-yilning kuzida Nurota tumanida olib borilgan arxeologik qidiruv ishlari va uning ajoyib natijalaridan biri – "Abdullaxon bandi" xarobalari topilganligi hikoya qilinadi. Bu band Kamal (Kamar) qishlog'inining sharqiy-shimoliy tomonida Oqchobsoyning tog' ungiridan chiqib keladigan qismida joylashgani qayd etiladi.<sup>20</sup>

1957-1962-yillardagi ekspeditsiya natijalariga ko'ra, Abdullaxon bandining to'g'oni slanets toshlaridan qurilib, tosh palaxsalari suvgaga chidamli maxsus ganch qorishmasi - qir bilan biriktirilgan. To'g'onning uzunligi asosida 7,3 metr, yuqorisida 85 metr, balandligi 14 yarim metr.

Band zinapoya shaklida qurilgan. Bunda suv bosimi va uning kuchi hisobga olingan holda to'g'on asosining qalinligi 15 metru 30 sm, ustki qismi 4 yarim metr qilinib, zinapoya shaklida qurilgan. To'g'on oldida hosil bo'lган suv omborining uzunligi 1,5 km, eni 75-125 metr bo'lган.

Unda taxminan 1 million 200 ming kubometr suv to'plangan va 2,5-3 ming hektar yerni sug'orish imkonini bergen.<sup>21</sup>. Inshootdan quyida joylashgan Kamar, Oqchop, O'rjanjiy, Rovot, Jilon tamg'ali va Soykechar qishloqlari hamda bandning yuqorisida joylashgan Katta hayot, Ko'k to'nli, Orolot, Sunbul, Xo'jasoy, Gulxanasoy qishloqlari ombor faoliyat yuritgan davrda obod bo'lган. Chunki suv oldi to'silganda bandning yuqorisidagi qishloqlarda mavjud buloqlarning suvi ko'paygan va ular qishloq xo'jaligida uuqori hosildorlikni ta'minlagan. Umuman, "XVI asrda ana shu qishloqlar hududida taxminan 1,2 ming ga yer maydoni o'zlashtirilgan"<sup>22</sup>.

Abdullaxon bandining aniq hisob-kitoblarga ko'ra pishiq-puxta qilib qurilgani XVI asr irrigatorlarining geologiya va gidrogelogiya ilmidan yaxshigina xabardor ekanliklaridan dalolat beradi.

Shunday qilib Shayboniylar davlatida xo'jalikning asosini tashkil etuvchi sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish ko'plab suv ayirg'ichlar, kanallar, suv omborlar qurilgan. Oqchobsoy suv ombori qurilishi shunday tadbirdardan biri edi.

<sup>19</sup> Xofiz Tanish al Buxoriy, "Abdullanova", (Sharafnomaiy shoxiy) asari. 2-kitob. 109-bet.

<sup>20</sup> Б.Амедов. "Абдулланома" киришга изоҳ . Т, Шарқ , 1999, 17 бег.

<sup>21</sup> Б.Амедов. "Абдулланома" киришга изоҳ . Т, Шарқ , 1999, 18 бег.

<sup>22</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. T.,1-tom. 2000 yil. 33-bet.